

ANQARA JANGI BORASIDA MUNOZARALAR VA JANG RO'Y BERGAN MAYDON HAQIDA YANGI NAZARIYA

Mamadaliyev Raxim Rustamovich

TATU Farg'ona filiali assistenti mamadaliyevrahim@mail.ru

Annotatsiya: *Usmoniy hukmdori Boyazid Yildirim va Amir Temur orasidagi sodir bo'lgan Anqara jangi dunyo tarixida eng ahamiyatli janglardan biri hisobladi. Ushbu maqolada Anqara jangi borasida munozarali masalalar va Turkiyalik tarixchilarning jang sodir bo'lgan hududi borasidagi fikrlari tahlil etilgan.*

Kalit so'z va iboralar: *Anqara jangi, Amir Temur, Yildirim Boyazid, Turkiyalik tarixchilar.*

Аннотация: *Битва при Анкаре между Османским правителем Баязидом Молниеносного и Эмиром Тимуром считается одним из наиболее значимых сражений в мировой истории. В данной статье анализируются спорные вопросы касающиеся битвы при Анкаре, а также мнения турецких историков относительно территории, на которой где произошло сражение.*

Ключевые слова и фразы: *Ангорская битва, Эмир Тимур, Баязид Молниеносный, Турецкие историки.*

Annotation: *The battle of Ankara between Ottoman ruler Bayezid the Thunderbolt and Amir Temur was considered one of the most important battles in world history. This article analyzes controversial issues regarding the battle of Ankara and the opinions of Turkish historians regarding the area where the battle took place.*

Key words and phrases: *Battle of Ankara, Emir Timur, Bayezid the Thunderbolt, Turkish historians.*

Anqara jangi dunyo tarixiga katta ta'sirini o'tkazgan voqealardan biri hisoblanadi. Zamonasining eng qudratli armiyalariga ega davlatlari o'rtasida bo'lib o'tgan ushbu jangda ikki buyuk sarkarda o'z mahoratlarini muhoraba maydonida namoyish qildilar. Yakunda Amir Temur boshchiligidagi qo'shin g'alabaga erishdi.

Ushbu jang haqida manbalarda shunday qayd etiladi: “jang ko'targan chang, moviy osmonni shu qadar bulg'agandiki, Quyosh bu qorong'ulikda jangni tomosha qilishdan mahrum edi, qushlar kabi uchar otlarga bingan yigitlarga samolar lol qolgan edi.” [2, 266] yoki “Qilichlarning chako-chak ovozi va paydarpay ayovsiz zarbalaridan mahshar kuni namunasi ko'rindi.” [13, 332] yoki qo'shinlar haqida “... cherikiy erdikim, aning soni va hisobi yo'q erdi, barchasi dilovar va bahodur” [15, 259].

Bu davrga oid bizgacha yetib kelgan ko'p sonli manbalarda Anqara jangi borasida so'z etilgan bo'lsa-da ushbu muhoraba borasida ba'zi tortishuvli masalalar ham mavjud. Albatta, bu ikki turk va musulmon hukmdori o'rtasida yuz bergan kelishmovchilikda asosiy aybdor shaxsning kim ekanligi haqidagi tortishuvlar bugunga qadar eng qizg'in

muhokama qilingan mavzulardan biridir. Shu bilan birga manbalarda yetarli yoritilmagan, asosli dalillar mavjud bo'lmagan va bir-biridan farqli ma'lumotlar qayd etilgan masalalar ham mavjud. Shunday masalalardan biri, Anqara jangida ishtirok etgan qo'shinlarning soni borasidagi tortishuvlar. Shuningdek, Anqara jangidan so'ngra asir olingan Boyazid Yildirimning taqdiri borasida ham tarixchilar orasida turli qarashlar mavjud. Anqara jangi sodir bo'lgan maydon borasidagi fikrlarni ham yuqoridagi masalalarga qo'shishimiz mumkin.

Anqara jangi maydoni haqida tadqiqotchilar orasida keng qabul qilingan "Chubuq nazariyasi" mavjud bo'lishiga qaramasdan bugungi kunga kelib bu borada yangi qarashlar ham ilgari surilmoqda. Ushbu munozarali mavzu, Anqara jangi sodir bo'lgan maydon borasidagi qarashlar quyida tahlil qilib o'tiladi.

Amir Temurning 1398-1399-yillarda Hindiston safarida ekanligidan foydalanmoqchi bo'lgan Jaloyirlar hukmdori Bag'dodni qaytarib olib Iroqda mustaqil davlat tuzish harakatlarini boshlab yubordi. Bu esa Amir Temurning takror Bag'dodga yurish tashkil qilishiga sabab bo'ldi. Bag'dod shahrini qaytadan fath qilgan va shimoldagi Turkman davlati bo'lmish Qoraqo'yunlilarning hududlarini ham qo'lgan kiritgan Amir Temur sharqiy Anatoliya chegarasi bo'ylab o'z hokimiyatini o'rnatdi. Jaloyirlar hukmdori Ahmad Jaloyir va Qo'raqo'yunli raisi Qora Yusuf, Usmoniy davlati hududiga qochib Yildirim Boyazid huzurida boshpana topdilar. Hindistondan Kichik Osiyogacha bo'lgan hududlarda o'z hokimiyatini o'rnatgan Amir Temurning navbatdagi maqsadi Kichik Osiyo hududini qo'lga kiritmoq edi. Bu davrda Kichik Osiyodagi beyliklar orasida haligacha siyosiy birlik ta'minlanmagan edi. Temur, Qoraqo'yunli davlatini ag'dargandan so'ng ushbu hududdagi ba'zi, beyliklarni o'ziga bo'ysundirdi. Usmoniylar davlatiga ham o'z ustunligini qabul ettirish uchun bir qator diplomatik va harbiy tadbirlarni boshlagan edi. Amir Temurning Usmoniylarga qarshi harbiy yurishlardagi ilk nishonga aylangan hudud Sivas shahri bo'ldi(1400-yil). Sivasgacha bo'lgan hududlarda o'z hokimiyatini o'rnatgandan so'ng Misr Mamluklar davlatidagi ichki nizolar oqibatida mamlakatning zayiflashganini qulay fursat deb hisoblagan Temur Halab, Hama, Humus va Shomni fath qildi [5, 26].

Shom yurishini muvaffaqiyatli tugatib Tabrizga qaytgan Amir Temur, bir muddatdan so'ng Yildirim Boyazidning Sivas va Erzurum viloyatlarida qaytadan o'z hokimiyatini o'rnatganligi xabarini oldi. Ikki davlat o'rtasidagi ba'zi kelishmovhiklar sababli Temur va Yildirim Boyazid orasida bir qator maktub almashinuvi bo'lib o'tadi. Sivas, Erzurumda Temur hokimiyatining o'rnatilishi, Ahmad Jaloyir, Qoraqo'yunli Qora Yusufning qaytarilishi va Boyazidning o'g'illaridan birining yuborilishi maktublardagi Amir Temurning talablaridan asosiylari edi. Usmoniy hukmdori esa bu talablarni qabul qilmaydi va haqoratlar bilan javob maktubini yo'llaydi. Ikki hukmdor orasidagi bu kelishmovchiliklar Anqara urushining bir sababi o'laroq tarixiy manbalarda ifoda etiladi. Urushning asl sababi esa har ikki turk hukmdorning ham jahonga hukmdor bo'lish maqsadi deyishimiz mumkin.

Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Anqara shahri ikki armiyaning to'qnash kelgan hududi sifatida ko'rsatiladi. Xususan, Nizomiddin Shomiy "...Sivosdan o'tlanib, olti manzil yo'l yurib Qaysariyaga keldi. U joyda amirzoda Abu Bakr bahodir, amir Shayx Nuriddin bahodirni qarovul tayinlab, Qaysariyadan Ankuriya¹²⁸ tomon jo'nadi. U hududdagi katta bir suvni yoqalab uch manzil yurdilar. To'rtinchi kuni g'alaba yor askarlar Cho'lig' yerlariga kelib tushdilar." [13, 328], deb qayd etadi. Ibn Arabshoh esa "Temur Anqara shahriga yetib kelgan bo'lib..."[3, 269], deya suv bo'yida askarlar dam olib janga sha'y holda ekanligini ta'kidlab o'tadi. Sharofiddin Ali Yazdiy va Muiniddin Natanziy ham jangni Anqarada bo'lganligini yozadi [15, 257-258]. Faqat bu manbalarda Anqara shahridagi jang maydoni borasidagi ma'lumotlar batafsil yoritilmagan.

Turkiyalik tarixchilar ushbu jang tafsilotlari borasida ancha keng ma'lumot berib o'tadilar. Xususan, muhoraba maydoni haqida bir qator tarixchilar o'z fikrlarini bildirishgan. Usmoniy davlati haqida keng ko'lamlil tadqiqotlari bilan mashhur Ismail Hakki Uzuncharshili (1888-1977) Anqara jangi haqida ham muhim ma'lumotlarni berib o'tadi. Uning qayd etishicha, dastavval Sivas va To'qat orasida ikki armiyaning ilg'or qismlari to'qnash kelgan faqat Amir Temur bu hududda jang olib borishni xavfli deb hisoblagan. Chunki, Sivas va To'qat orasidagi kechuvlarni Yildirim Boyazid nazorat ostiga olgan edi. Shuning uchun ham Temur avval Qayseri tomonga undan so'ng Qirshehir tomonga qarab yo'l oldi. Temur qo'shinining Qayseri tomon yo'nalganligi xabari olgan Boyazid esa bu paytda qo'shini bilan shimoliy yo'nalish bilan harakatga kechgan edi. Temur Qirshehirdan so'ngra Anqara tomonga yo'nalgan edi. Uzuncharshiliga ko'ra, Amir Temur Anqaraga kelishi bilananoq qal'ani zabt etish harakatini kirishgan edi lekin, Usmoniylar qo'shini Temur tahmin qilganidan ko'ra tezroq yetib kelganligi tufayli qal'a qamalini to'xtatib qulayroq hududda jang olib borish uchun Chubuq tekisligi Malikshoh qishlog'i tomon yo'l oladi. Uzuncharshili jang bo'lib o'tgan hududni Chubuq o'laroq qayd etadi [6, 269-270].


Ushbu muhoraba borasida alohida tadqiqot olib borgan ilk muallif o'laroq Omer Halis Biyiktayni ta'kidlab o'tishimiz mumkin. Aynan u Turkiyalik tarixchilar orasida ilk bor jang sodir bo'lgan hudud sifatida Chubuq maydonini ko'rsatib o'tadi. 1884-1935-yillari yashab o'tgan Turk generali Omer Halis "Yetti yillik yurish davomida Temurning Anadolu safari va Anqara jangi" [14] nomli asarida Boyazid va Temurning qo'shinlari haqida, jangning borishi, qo'shinlarning soni borasida batafsil ma'lumotlar berib o'tadi hamda jang maydonining topografiyasiga alohida to'xtalib o'tadi. Omer Halisning yozishiga ko'ra, Amir Temur Sivasdan Kayseriga kelgan va avval Qizilirmoqning shimoliga o'tib Qirshehirda to'xtaydi lekin, Boyazid qo'shini bilan to'qnash kelishi ehtimoli mavjud bo'lib butun kecha jangga shay holatda kutganligini yozadi. Qirshehirdan esa daryoning g'arbiga, ko'llar tomonga yo'l oladi. Qizilirmoq daryosi va ko'llar orasidagi hududning qurg'oq ekanligi sababli bu yerlarda quduqlar

¹²⁸ Ankuriya – hozirgi Anqara shahri, Turkiyaning poytaxti.

qazdirganligini ta'kidlab o'tgan Omer Halis, Amir Temurning asosiy qo'shini joylashgan ko'llar hududi Anqara shahridagi Emirtog'i, Mo'g'on, Emir ko'llari ekanligini hamda ushbu ko'l nomlari o'sha tarixiy kunlarning nishonasi deb qayd etadi.

Temur va Boyazid qo'shinarining harakatlarini keng qamrovli analiz qilgan muallif jangning Chubuq maydonida bo'lganligini ta'kidlaydi. Boyazid qo'shini Anqaraga shimol tomondan yaqinlashganligi Temur esa shaharning suv manbalariga boy bo'lgan janub qismiga joylashganligini bildirib o'tadi. Asli harbiy bo'lgan Omer Halis Anqara geografiasini va qo'shinning harakat qilish qobiliyati va jang strategiyalarini analiz qilgan holda jangning Chubuq tekisligi, Malikshoh qishlog'i hududida sodir bo'lgan deb ta'kidlaydi [14, 70-74].

Omer Halis tomonidan jangning Chubuq tekisligida bo'lganligi fikri ko'plab turk tadqiqotchilari tomonidan keyinchalik qabul qilingan. Xususan, turk huquqshunosi va siyosatchisi Mahmut Esad Bozqurt, Turkiya Respublikasi Turk tarix tashilotining quruvchilaridan biri hisoblangan Mukrimin Halil Yinanch (1900-1961), Temuriylar davri bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mualliflari hisoblangan tarixchilar Juneyt Qanat, Yujel Yashar, Hayrunnisa Alan, Turkiyalik Temuriylar davri bo'yicha eng yirik mutaxassisi Temurshunos olim Ismoil Aka ham jangning Chubuqda bo'lganligi ta'kidlab o'tadi [8,63; 11,391; 7,192; 5, 28]. Xususan, Ismoil Aka shunday qayd etadi: "Jang sodir bo'lgan maydon sharqda Chubuq soyi vodiysi (Anqara, Esenbo'g'a, Chubuq, Hojilar qishlog'i); g'arbda Qushchi tog'i, Mire tog'i, Ova soyi, Qishlachiq darasi; shimolda Jonqurtaran; janubda Qorachaviron, Qushchi tog'i orasida qolgan bo'lib, asosiy jang, Chubuq soyidan e'tiboran g'arbgacha tomon tahminan 6 km qadar cho'zilgan Qizilchako'y darasi bo'ylab ro'y beradi.", [5, 28].



Chubuq maydonida bo'lib o'tgan jangda qo'shnlarning joylashuvi

Turkiyalik tadqiqotchilarning aksar qismi jang Chubuq maydonida sodir bo'lganligi borasida hamfikr. Faqat bu fikrga qo'shilmaydigan tadqiqotchilar ham mavjud. Ulardan Halil Chetinning bu mavzu borasida bildirgan fikrlari diqqatga sazavor. 2005-yili "Temurning Anado'lu safari va Anqara jangi" nomli doktorlik dissertatsiyasi keyinchalik alohida kitob holda ham nashr etilgan [1]. Ushbu asarda muallif Amir Temurning Usmoniylar davlatiga bo'lgan yurishini batafsil yoritib o'tadi shuningdek, Anqara janggi xususida keng qamrovli tadqiqot olib boradi. Jang ro'y bergan maydoni borasida to'xtalib o'tgan Chetin, jangning Chubuq maydonida sodir bo'lganligi haqidagi fikrni ilk ilgari surgan tadqiqotchi Omer Halisning bu xususda yetarli manbalarga asoslanmaganligi, general unvoni hamda harbiy bilim va tajribalariga asoslangan holda ushbu to'xtamga kelganligini aytib o'tadi [1, 94].

Chetinning ta'kidlashiga ko'ra, Omerhalis tomonidan bildirilgan ushbu fikr keyinchalik M. Aleksandresku-Derska, Halil Yinanch, Ismoil Aka kabi olimlar tomonidan qabul qilingan, vaholanki manbalarda jangning Chubuq maydonida bo'lganligi haqida yetarlicha dalil mavjud emas.

Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida "Chulug' maydoni" ma'nosiga keluvchi "يظارا غلوج" ifodasi yozib o'tilgan. Ushbu joy nomi yozilishida harakat belgilari bo'lmaganligi sababli Nejati Lugal tomonidan "Chulug' " shaklida o'qilgan va bu Chubuq bo'lishi mumkinligi haqida izoh kiritib o'tilgan [12, 302]. Shuningdek, Halil Chetin boshqa manbalarda ham jang maydoni borasida Chubuq so'zi qayd etilmaganligiga e'tibor qaratadi. Jang hududi Sharofuddin Ali Yazdiy asarining Toshkent nusxasida "ولج" (ch-l-v) shaklida, asarning Tehron nusxasida esa "هرون" shaklida qayd etilgan. Shuningdek, Hondamirning asarida "هروت" (t-v-r-h) tarzida qayd etilgan [1, 95].

Bevosita arxiv hujjatlarini tadqiq qilgan, Chetin ushbu joy nomining Usmoniylar soliq qayd daftarlarida 1463-yilda ilk bor eslatib o'tilganligi, Usmoniy muarrixlarining asarlarida ilk bor bu joy nomi 1490-yilda tarixchi Kemal tomonidan "Selatin-name" asarida qo'llanilganini qayd etadi. Usmoniy manbalarida va qayd daftarlarida ushbu joy nomining tilga olinganligi uchratishimiz mumkin va bu manbalar jangdan deyarli 100 yil keyin qalamga olinganligiga qaramasdan Chubuq nomining Temur va Yildirim to'qnash kelgan davrda ham qo'llanilganlik ehtimoli mavjud.

Faqat "Anqara jangi fathnomasi"da ushbu joy nomi tilga olinmaganligini ta'kidlab o'tish zarur [1. 97]. Fathnomada jang hududi borasida "(Anqaraning) sharqiy tarafida, (bu yerga) yarim farsah (tahminan 3 km) uzoqlikda, biz bilan uning orasida katta to'qnashuv va jang bo'ldi", [4, 12] deb qayd etiladi.

Chetinning ta'kidlashiga ko'ra, jang sodir bo'lgan hudud Chubuq ekanligi borasida manbalarda yetarlicha dalilga ega emasligimizni, shu sababli ushbu masalaga extiyotkorlik bilan yondashish lozimligini aytadi.

Halil Chetin jang maydoni borasida o'z nazariyasini ilgari suradi. Ushbu nazariya ham manbalarda kuchli dalilga ega emasligini lekin, bu fikrni qo'llab quvvatlovchi bir qator omillarning mavjud ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, hozirgi Anqara viloyatining Haymana tumanida Shomiyning asarida qayd etilganidek Chulug' nomli bir qishloq mavjud. Faqat bu qishloqning nomi 1463-yildagi soliq qayd daftlarida eslatib o'tilmagan. Lekin, Usmoniylar davri muarrixlaridan biri bo'lgan Neshrining asarida jang maydoni "Sivriler" deya qayd etiladi [9, 351]. Hozirgi Haymana hududida shu nomdagi qishloq ham mavjud bo'lib 1463-yilidagi qayd daftarida bu hudud nomi tilga olinadi. Chetin ushbu ikki qishloqning nomidan kelib chiqqan holda jang maydoni Haymana hududi bo'lishi mumkinligi ehtimolini ilgari suradi [1, 95-97].

Bu fikrni asoslash uchun esa Haymana hududining manbalarda ta'kidlanganidek qurg'oq bir hudud ekanligi, Chubuq mavzesi esa suv manbalariga boy hududda joylashganini qayd etadi. Shuningdek, Temur o'z qo'shinini ko'llar hududiga joylashtirgani bu ko'llarning Mog'on va Emir ko'llari ekanligini hisobga olsak va Amir Temur Anqara qal'asini qamal qilayotgan bir paytda Boyazid Yildirimning yetib kelgani xabarini olishi bilan qamalni to'xtatganligini hisobga olsak Temur Chubuq mavzesi tomon dushmanga qarab ilgari borishidan ko'ra asosiy qo'shini joylashgan tomon chekinishi mantiqan to'g'ri bo'lishini ta'kidlaydi. Bu holatda Mo'g'on va Emir ko'llarining janubida joylashgan Haymananing Chulug' qishlog'i Amir Temurning ortga chekingan va jang qilish uchun qulay hudud sifatida tanlangan tekislik deyish mumkin bo'ladi.

Haymana nazariyasini qo'llab quvvatlovchi boshqa bir dalil esa "Anqara jangi fathnomasi"da jang borasida qayd etilgan ma'lumotlardir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek fathnomada jang maydoni yarim farsax uzoqlikda bo'lib o'tganligi qayd etilgan. Amir Temurning Anqaradan Afyon-Qorahisor tomon yo'l olganligini hisobga oladigan bo'lsak ushbu ma'lumot ham ma'no kasb etishni boshlaydi.

Temurning jang maydoni sifatida Haymanini tanlashidagi yana bir omil esa ko'chmanchilar tomonidan maskan tutilishi edi. Janub tomon Temurning ittifoqchisi Qaramano'g'lining nazorati ostida bo'lishi sharqiy tomondan Qizilirmoq va g'arbiy tomondan esa Sakarya daryolari tabiiy himoya tashkil qilar edi. Bu kabi omillarni hisobga olgan holda Chetin jang maydoni Haymana hududida bo'lishi ehtimolini ilgari suradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish mumkin, Temuriylar davlati tarixining ko'plab sohalari Turkiyalik tarixchilar tomonidan tadqiq qilingan. Shu jumladan, dunyo tarixidagi eng ahamiyatli janglardan biri hisoblangan Anqara jangi borasida ham ko'p sonli turk tarixchilar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Hamda ushbu jang sodir bo'lgan maydon o'laroq Chubuq mavzesi ko'rsatiladi. Ammo Chubuq nazariyasi tarixchilar orasida keng qabul qilingan qarash bo'lsa ham manbalarda qat'iy dalilga ega emas. Shu bilan birga ushbu jang hududi borasida endilikda yangi nazariyalar ham ilgari surilmoqda. Alternativ nazariya hisoblangan Haymana borasidagi qarash ham o'ziga

xos dalillarga ega. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda jang maydoni borasida manbalarda aniq ta'kidlangan ma'lumotlarga ega emasmiz shuning uchun ham bu masalaga ehtiyotkorlik bilan yondashmoq darkor. Shuningdek, ushbu jang borasida ikki xil qarash ilgari surilmoqda va hozirda tarixchilar hamfikir bo'lgan Chubuq nazariyasidan tashqari Haymana nazariyasi ham tarixchilar tomonidan o'z tadqiqotlarida e'tiborga olinishi lozim.

FOYDALINILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Halil Çetin, Timur'un Anadolu Seferi ve Ankara Savaşı. İstanbul: Yeditepe, 2012, 240 b.
2. Hoca Sadettin Efendi, Tacü't-Tevarih, haz. İsmet Parmaksızoğlu, Kültür Bakanlığı Yayınları, 1999, 1859 b.
3. Ibn Arabshoh, Ajoib al-Maqdur fi Tarixi Taymur. 1-kitob. So'zboshi arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan – T: Mehnat, 1992. – 326 b.
4. İsmail Aka, “Timur'un Ankara Savaşı (1402) Fetihnamesi”//Belgeler, IX jild, 15-son, 1981. – 12 b.
5. İsmail Aka, Timur ve Devleti. Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, 1991 – 173 b.
6. İsmail Hakkı Uzunçarşılı, Osmanlı Tarihi. 1-jild/ Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, 1988. – 534 b.
7. Kanat Cüneyt. Memluk-Timurlu Münasebetleri (1382-1447)/ İzmir, 1996. – 251 b.
8. Mahmut Esat Bozkurt, Aksak Demirin Devlet Politikası Timurlenk Üzerine İnceleme/ İstanbul: Kaynak yayınları, 2005. – 87 b.
9. Mehmed Neşri, Kitab-i Cihan-nüma./ Hazırlayanlar: Faik Reşit Unat, Mehmed A. Köymen, Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, 1949. – 419 b.
10. Muiniddin Natanziy, Muntaxab ut-Tavorixi Muiniy/ Fors tilidan tarjima, so'z boshi va izohlar muallifi: G'ulom Karimiy, Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 264 b.
11. Mükrimin Halil Yınanç, “Bâyezid I”// MEB İslam Ansiklopedisi, II jild, Eskişehir, AÜGSF, 1997.
12. Nizamüddin Şami, Zafername/ Farsçadan çeviren Necati Lugal, Ankara: Türk tarih kurumu basımevi, 1987. – 380 b.
13. Nizomiddin Shomiy, Zafarnom/ Fors tilidan o'guruvchi – Yunusxon Hakimjonov, tarjimani qayta ishlab nashrga tayyorlovchi va mas'ul moharrir – Asomiddin O'rinboyev, Toshkent: O'zbekiston. – 1996, 528 b.
14. Ömer Halis Bıyıktay, Yedi Yıl Harbi İçinde Timur'un Anadolu Seferi ve Ankara Savaşı/ İstanbul: İstanbul Askeri Matbaa, 1934. – 126 b.

15. Sharofiddin Ali Yazdiy, Zafarnoma. So'z boshi, tadbil, izohlar va ko'rsatkichlar mualliflari: Ashraf Ahmedov, Haydarbek Bobobekov, Toshkent: Sharq, 1997. – 384 b.